

Lev Tolstoy

HOJIMUROD

• qissa • hikoya •

14+





Lev
Nikolayevich
Tolstoy

HOJIMUROD

Q I S S A

«Ziyonashr»

Toshkent — 2019

UO'K: 821.161.1-31
KBK 84 (2 Ros=Rus)
T 64

Uyg'un va M. Aliyevlar tarjiması

Nashrga tayyorlovchi va mas'ul muharrir
Ortiqboy Abdullayev

T 64 **Tolstoy, Lev.**

Hojimurod. [Matn]: Qissa va hikoya / L.Tolstoy – T.: «Ziyo nashr» Mas'uliyati cheklangan jamiyat, 2018. – 160 b.

ISBN 978-9943-5704-0-5

Buyuk rus adibi Lev Tolstoyning «Hojimurod» nomli qissasi asrlar osha kitobxonlar e'tiboridan tushmay keladi.

Bu – inson taqdirining murakkabligi, vatanparvar, ozodlik kurashchilari nomining unutilmasligi bilan bog'liqdir balki...

Ushbu to'plamdan joy olgan qissadagi qahramonlar bilan g'oyibona uchrashuv tasavvur olamimizni boyitishiga ishonamiz.

UO'K: 821.161.1-31
KBK 84 (2 Ros=Rus)

ISBN 978-9943-5704-0-5

© «Ziyo nashr» MChJ, 2019.

HOJIMUROD

Uyga dala bo'ylab qaytayotgan edim. Yozning qoq o'rtasi. Pichan o'rib olingan, suli o'rish payti yaqinlashib qolgan edi.

Yilning bu faslida rang-barang chiroyli gullar – qizil, oq, pushti, xushbo'y momiq chinnigullar, sutdek oq, o'rtasi och sariq, yoqimli bo'y taratuvchi «muhabbat gullari», asal hidli sarg'ish gulira'nolar, binafsha yoki oq lolaga o'xshab ketadigan karnaygullar, chirmashib o'sadigan no'xatgullar, sariq, qizil, pushti gulsafsarlar, ko'kimtir, och pushti jig'ali, sezilar-sezilmas yoqimli is taratuvchi otquloqlar, kechqurunlari, ayniqsa, quyosh chiqayotganda yal-yal yonib tovlanadigan ko'kimtir, so'liy boshlaganda esa ko'kish, qizg'imtir tusda tovlanuvchi latif, bodom hidli, guli tez qurib qoladigan chirmoviq gullar ko'p bo'ladi.

Turli-tuman gullardan kattakon guldasta yasab, uyimga qarab ketayotganimda zovur ichida qizg'ish rangli, chaman-chaman ochilgan, bizda qushqo'nmas deb ataluvchi, chalg'ichilar o'rmasdan qoldirib o'tadigan, mabodo qo'qqisdan chopilib ketsa, qo'lga kirmasin deb o't ichidan olib tashlanadigan tikanakka ko'zim tushdi. Bu tikanakni yulib olib guldastaning o'rtasiga qo'ymoqchi bo'ldim. Zovurga tushdim-da, gulning o'rtasiga yopishib olib, qattiq uyquga kirgan tukdor arini haydab, uni uzishga tutindim. Ammo bu ish juda qiyin bo'ldi, gulning tikanaklari har tarafdand, hatto qo'limga o'rab olgan dastro'moldan ham o'tib, nayzadek sanchilardi, bugina emas – u shu qadar chayir ediki, poyasini titib, paylarini birma-bir uzish uchun besh daqiqacha ovora bo'ldim. Nihoyat, gulni uzib olganimda poyasi tamom titilib to'zg'ib ketdi, endi u ilga-

rigidek chiroyli ko‘rinmasdi. Bundan tashqari, u dag‘alligi va beo‘xshovligi bilan guldastadagi nozik gullarga qovushmay qoldi. Men o‘z tupida yashnab turgan gulni uzib behudaga juvonnarg qilganim uchun o‘kindim, keyin uni yerga tashlab yubordim. «Ajabo, hayot naqadar mo‘jizakor va qudratli, – deya gulni uzayotganimda chekkan mashaqqatimni xotirladim, – u o‘z hayotini juda qattiq himoya qildi va osonlikcha jon bermadi».

Uyga olib boradigan yo‘l shudgor qilinib, yangigina haydalgan qora tuproqli daladan o‘tar edi. Mana shu qora tuproqli chang yo‘ldan yurdim. Haydalgan dala zamindorning yeri bo‘lib, juda katta edi; har ikki tarafda va tepalikka cho‘zilgan old tarafda qora, tep-tekis, hali mola bosilmagan shudgordan bo‘lak hech narsa ko‘rinmasdi. Yer yaxshi haydalgan, dalaning hech bir yerida biron giyoh ko‘rinmas, hamma yoq qop-qora edi. Men beixtiyor bu o‘lik, qora dala o‘rtasidan biron jon asarini axtararkanman: «Odam – qanday yemiruvchi maxluq, o‘z hayotini saqlash uchun qanchadan qancha rang-barang tirik mavjudotlarni, o‘simliklarni mahv etadi», – deb o‘yladim. Oldimda, yo‘lning o‘ng tarafida allaqanday bir buta ko‘rindi. Yaqinroq kelib qarasam, u haligi gulini uzib tashlaganim – «qushqo‘nmas» navidan ekan.

Butaning uchta novdasi bor edi. Bittasi sindirib olingan, qolgani xuddi chopib tashlangan qo‘l singari cho‘ltoq edi. Ikki shoxning har birida esa bittadan gul bor. Shoxning bir bandi singan, yarmisi guli bilan pastga osilgan, boshqa biri garchi loyga belangan bo‘lsa-da, hamon yuqoriga qarab dikkayib turardi. Butun butani g‘ildirak bosib o‘tganligi, so‘ng yana ko‘tarilganligi ko‘rinib turardi, xuddi uning tanasidan bir parchasini yulib olganlar-u, ichak-chovog‘ini ag‘darib tashlaganlar, qo‘lini sug‘urib, ko‘zlari o‘yilgan, lekin u hamon qaddini ko‘tarib turar va atrofdagi barcha birodarlarini mahv etgan insonga taslim bo‘lmagan edi.

«Naqadar zo‘r qudrat! – deya o‘yladim men, – inson hammasini yengibdi, millionlarcha o‘t-o‘lanlarni mahv etibdi, bu esa hamon taslim bo‘lmabdi».

Shundan keyin bundan ancha ilgari bo'lib o'tgan Kavkaz tarixidagi bir voqea yodimga tushdi. Bu voqeaning bir qismini o'zim ko'rganman, bir qismini esa tasavvur qildim. Mening xotiramda va tasavvurimda tartibga kelgan voqea mana bunday edi.

I

Bu voqea 1851-yillarning oxirlarida yuz bergan edi.

Noyabrning sovuq bir oqshomida ruslar egallagan yerlardan yigirma chaqirimcha uzoqlikdagi, tezak tutuniga ko'milib yotgan notinch chechen ovuliga Hojimurod kirib keldi.

So'fining o'tkir tovushi endigina tingan ve tezak hidi singib ketgan tog' havosida, bir-birlari bilan bahslashayotgan erkaklarning shovqinlari, pastdagi buloqdan chiqayotgan xotin-xalaj va bolalarning ovozlari, ovulning tig'iz, xuddi ari uyasi singari bir-biriga yopishib ketgan joylarida taralayotgan sigir va qo'ylarning ma'rashlari baralla eshitilmoqda edi.

Hojimurod o'z qahramonliklari bilan dong chiqargan, biror yoqqa borganida tug' ko'targan, atrofida ot o'ynatib, uni kuza-tib boruvchi o'nlab muridlarsiz yurmaydigan Shomilning noibi edi. Hozir u, ostidan miltiq turtib chiqib turgan jun chakmonga o'ralgan, quloqchinini bostirib kiygan holda, iloji boricha o'zini tanitmaslikka tirishib, yo'lda uchragan ovul ahllarining yuzlariga o'ynoqi qora ko'zlari bilan yashirin nazar tashlab, bittagina muridi bilan bormoqda edi.

Hojimurod ovulning o'rtasiga kelgach, guzarga chiqadigan yo'lga yurmasdan, chapga – tor ko'chaga burildi. U tepalikdagi ikkinchi uyning oldiga kelgach, atrofiga bir qarab to'xtadi. Uy oldidagi bostirmada hech kim yo'q, tomda esa yaqindagina suvalgan mo'rining orqasida po'stinga o'ralgan bir kishi yotar edi. Hojimurod u kishini qamchisining sopi bilan turti va qat-tiq yo'taldi. Po'stin ostidan boshiga tungi qalpoq, ustiga yag'iri chiqib ketgan eski nimcha kiygan bir chol ko'tarildi. Cholning kipriksiz ko'zlari qizil va namli edi, u yopishqoq ko'zlarini ochmoqchi bo'lib pirillatdi. Hojimurod odatga ko'ra salom bergach, yuziga o'ragan ro'molini ochdi.

Chol Hojimurodni tanib, tishsiz og‘zini ochib iljaygach:

– Vaalaykum assalom, – dedi, so‘ng qaltiragan oriq oyoqlarini yig‘ib o‘rnidan turdi-da, mo‘ri yonidagi yog‘och poshnali kavushini oyog‘iga ilib bo‘lgach, shoshilmasdan taqiri chiqib qolgan po‘stinini kiydi. So‘ng tomga qo‘yilgan narvondan tusha boshladi. Chol pastga tushar ekan, ingichka, tirishib ketgan, oftobda kuygan bo‘yni bilan boshini chayqar va hech to‘xtovsiz g‘o‘ng‘illar edi. U yerga tushgach, mehmondo‘stlik odatiga ko‘ra, Hojimurodning otining jilovi va o‘ng uzangisini ushladi, ammo otidan chaqqon tushgan Hojimurodning baquvvat va chapdast muridi cholni chekkaga surib, o‘rmini o‘zi egalladi.

Hojimurod otidan tushdi va sal oqsab bostirmaga kirdi. Uning qarshisiga o‘n besh yoshlardagi bir bola yugurib chiqdi va xuddi pishib turgan qorag‘at singari qora, yaltiroq ko‘zlarini taajjub bilan keluvchilarga tikdi.

– Chop, machitga borib otangni chaqirib kel, deb chol bolaga buyurdi, so‘ng Hojimurodning oldiga tushib, uyning yengil, g‘ijillab ovoz chiqaradigan eshigini ochdi. Hojimurod ichkariga kirganda ichki eshikdan qo‘lida yostiq ko‘targan, sariq ko‘ylak ustidan qizil kamzul kiygan, ko‘k ishtonli, yoshi o‘tibroq qolgan ingichka, ozg‘in bir xotin chiqdi.

– Qadaming qutlug‘ bo‘lsin, – dedi u ikki bukilib mehmonning yon-atrofiga yostiq qo‘yarkan.

– Ilohim, o‘g‘illaring omon bo‘lsin, – dedi Hojimurod chakmonini yechib, miltiq va quloqchinini cholga berayotib.

Chol miltiq va quloqchinni ohistalik bilan uy egasining qurollari yonidagi qoziqqa, tekis suvalib oqlangan devorda yarqirab turgan ikkita katta jom o‘rtasiga osib qo‘ydi. Hojimurod to‘pponchasini to‘g‘rilab, yostiq yoniga keldi va qalpog‘ini qoqib, yostiqqa suyaldi. Chol uning yoniga cho‘kkaladi, ko‘zlarini yumdi, qo‘llarini yuqori ko‘tardi. Hojimurod ham shunday qildi. So‘ng fotiha o‘qib bo‘lishgach, har ikkalasi ham qo‘llarini yuzlariga surtishdi.

– Nima xabar bor? – Hojimurod choldan so‘radi.

– Hech qanday xabar yo‘q, chol qizil nursiz ko‘zlari bilan Hojimurodning yuziga emas, ko‘kragiga qarab turib javob

berdi. — Men asalari bog'chasida turaman, faqat shu bugun o'g'limni ko'ray deb keldim. Biror yangi gap bo'lsa, u biladi.

Hojimurod chol bilganlarini va unga tegishli gaplarni ayishni istamayotganini angladi-da, boshini sal qimirlatib qo'ydi va ortiq hech narsa so'ramadi.

— Hech qanaqa xushxabar yo'q, — deya chol gap boshladi. Yangilik faqat shuki, barcha quyonlar, burgutlarni qanday qilib haydash haqida kengashmoqdalar. Burgutlar esa goh unisini, goh bunisini titkilamoqda. O'tgan hafta beting qurg'ur rus itlari michitliklarning pichaniga o't qo'ydilar, deb chol g'azab bilan xirilladi.

Katta-katta ohista qadam bosib, Hojimurodning muridi kiradi va xuddi murshidi singari u ham chakmonini yechdi, faqat sanjar bilan to'pponchasinigina qoldirib, miltiq va qilichini yelkasidan oldi, so'ng ularni Hojimurodning qurollari turgan qoziqqa ildi.

— Bu kim bo'ldi? — chol kiruvchini ko'rsatib Hojimuroddan so'radi.

— Muridim Eldor, — dedi Hojimurod.

— Ko'p yaxshi, — dedi chol va Eldorga Hojimurodning yonidan — kigizdan joy ko'rsatdi.

Eldor chordana qurib o'tirdi va indamasdan chiroyli qo'y ko'zlarini gapirayotgan cholning yuzlariga tikdi. Chol o'tgan hafta ularning yigitlari ikki askarni tutib olganliklarini, birini o'ldirib ikkinchisini Vedeno¹ga — Shomilning oldiga yuborganliklarini so'zlab berdi. Hojimurod eshikka qarab-qarab qo'yib, tashqaridan eshitilayotgan ovozlarga quloq solib, cholning so'zini parishon holda tinglamoqda edi. Uy oldidagi bostirma ostidan oyoq tovushlari eshitildi, eshik g'ijillab ochilib, uy sohibi ichkari kirdi.

U Sado bo'lib, qirq yoshlar chamasida, siyrak soqolli, uzun burun, uni chaqirib kelish uchun machitga chopib borgan va otasi bilan birga uyga kirib, eshik yonida o'tirgan o'n besh

¹ *Vedeno* — Chechenda istehkom qilingan ovul, birmuncha vaqt Shomilning qarorgohi bo'lib turgan. 1858-yilda ruslar uni bosib olib, xaroba qilingan ovul o'rniga shu nomda yangi qal'a qurishgan.

yashar o'g'ilning ko'zlari singari yaltiroq bo'lmasa-da, qora ko'zli bir kishi edi. Uy egasi, eshik oldiga kavushini yechdi va ko'pdan beri olinmay, o'sib ketgan qora sochli boshidagi eski, qirilib ketgan papag'ini yelkasiga surib qo'ydi-da, shu zahotiyoq Hojimurodning qarshisiga cho'kka tushib o'tirib oldi.

Chol singari u ham ko'zlarini yumdi, qo'llarini ko'tarib fotiha o'qidi, shundan keyingina gapga tutindi. U Shomildan Hojimurodni o'lik yo tirik holda qo'lga tushirish haqida buyruq bo'lganini, elchilar kechagina ketganlarini, xalq bu buyruqqa quloq solmaslikdan qo'rqishini, shuning uchun ehtiyot bo'lishi kerakligini so'zlad.

– Hali men tirik ekanman, – dedi Sado, – uyimdagi mehmonimga hech kim, hech narsa qilolmaydi. Lekin tashqarida qanday bo'ladi? Buni o'ylab ko'rish kerak.

Hojimurod diqqat bilan tingladi va ma'qullab boshini qimirlatib qo'ydi, so'ngra Sado so'zini tugatgach:

– Yaxshi. Hozir ruslarga maktub bilan bir kishini yuborish lozim. Muridimni jo'nataman, faqat uni boshlab olib boruvchi kishi kerak, – dedi.

– Ukam Bota boradi, – dedi Sado va o'g'liga qarab, – Botani chaqir, – dedi.

Bola xuddi prujinaday irg'ib turdi va qo'llarini chayqatganicha uydan tez chiqib ketdi. U o'n daqiqalardan keyin oftobda qop-qora bo'lib kuyib ketgan, qotma, kalta oyoq, ustiga titilib bitgan, yenglari yirtilgan jiyakli sariq chakmon va sidirilib tushib ketgan qora boshmoq kiygan bir chechen bilan birga qaytib keldi. Hojimurod yangi kelgan kishi bilan ko'rishgach, to'g'ridan to'g'ri:

– Muridimni ruslarning huzuriga olib borolmaysanmi? – deb so'radi.

– Bo'ladi, – Bota xushchaqchaqlik bilan javob berdi, – hammasi ham bo'ladi. Mendan boshqa birorta chechen u yoqqa o'tolmaydi. Mabodo o'tadigani topilsa, va'dani katta qiladi-yu ammo hech ish chiqarolmaydi. Men esa ish chiqara olaman.

– Xo'p, xizmatimga uchun uchni olasan, – dedi Hojimurod uchta barmog'ini ko'rsatib.

Bota anglaganligiga ishora qilib, bosh irg'adi, ammo pul uchun emas, balki sharaf yuzasidan Hojimurodga xizmat qilishini pisanda qilib qo'ydi. Hojimurod rus to'ng'izlarining qanday ta'zirini berganini tog'liklarning hammasi biladi.

– Yaxshi, – dedi Hojimurod. – Arqonning uzuni, gapning qisqasi yaxshi.

– Argun¹ buriladigan joyda, tik jarning qarshisida, o'rmon ichidagi yalanglikda ikki g'aram bor. Bilasanmi?

– Bilaman.

– U yerda uch nafar otliq yigitlarim meni kutib turishibdi, – dedi Hojimurod.

– Xo'sh, – dedi Bota bosh qimirlatib.

– Xon-Magomani so'raysan. Xon-Magoma nima qilishini va nima gapirishini biladi. Uni ruslarning boshlig'i knyaz Votensovning huzuriga olib borish lozim. Olib borolasanmi?

– Olib borolaman.

– Olib borib, yana qaytarib olib kelish lozim. Uddasidan chiqa olasanmi?

– Albatta, chiqaman.

– So'ng o'rmonga qaytib kelasan-a! Men ham o'sha yerda bo'laman.

– Hammasini bajo keltiraman, – dedi Bota, – so'ng o'rmondan turdi va ta'zim qilib uydan chiqib ketdi.

– Yana bir kishini Gexi²ga yuborish lozim, – dedi Hojimurod Bota chiqib ketgach; uy egasiga aytdi. – Gexida mana nima qilish kerak, – u kamzulining gozir³laridan birini ushlab turib, gap boshlagan edi, ammo uyga kirib kelgan ikki ayolni ko'rib, shu zahotiyoyoq qo'lini pastga tushurdi-da, jim bo'lib qoldi.

Ulardan biri Sadoning xotini, – o'sha yoshi o'tib qolgan, o'zg'in, mehmonlarga yostiq keltirib qo'ygan ayol edi. Boshqa biri qizil ishton va zangori kamzul kiygan, ko'kragi bilan bitta

¹ Daryoning nomi.

² Gexi – Checheniston markazidagi bir ovul; o'rmon bilan o'ralgan bu ovul ruslarga qarshi kurashda tayanch nuqtasi bo'lgan.

³ Gozir – cherkaslar chakmonidagi o'q joylash uchun ko'krak cho'ntakning har ikki tomoniga qator tikilgan maxsus cho'ntaklar (o'q xaltachalari).

kumush tanga jevak taqib olgan yoshgina qiz edi. Uning ozg'ir yelkalari orasida yotgan, uzun bo'lmasa-da, yo'g'on sochlari-ning uchiga bir so'mlik kumush tanga taqilgan edi; xuddi otasi va ukasiniki singari qorag'atday ko'zlari jiddiy ko'rinadigan yosh chehrasida jonsarak yaltirar, mehmonlardan iymanib, ularga tik qaray olmas edi.

Sadoning xotini dumaloq xontaxta keltirdi. Uning ustida choy, chalpak, qatlama, pishloq, churak va bol bor edi. Qiz esa tosqumg'on va sochiq olib kirdi.

Sado bilan Hojimurod – har ikkalasi ham to ayollar o'zlarining qizil, yumshoq, o'kchasiz chuvaklari bilan ohista yurishib, keltirilgan narsalarni mehmonlar oldiga joylashtirib, qo'yganlariga qadar, jim o'tirdilar. Eldor bo'lsa, ayollar uydari chiqib ketgunlaricha, o'zining qo'y ko'zlarini chalishtirgan oyoqlariga tikkancha xuddi haykal kabi, qimirlamadi. Faqat ayollar eshikka chiqib ketib, eshik orqasida ularning yumshoq qadam tovushlari tamoman eshitilmay qolgandan keyingina Eldor yengillanib nafas oldi, Hojimurod esa kamzulinig goziri-dan bir o'qni sug'urib, uning ostidan naycha qilib o'rab qo'yilgan bir xat chiqardi.

– O'g'lingga ber, – dedi u xatni Sadoga uzatib.

– Javobini qayerga yetkazamiz? – deb so'radi Sado.

– Senga bersinlar, sen menga yetkazasan.

– Xo'p bo'ladi, – dedi Sado va xatni o'z kamzulinig goziriga joylab qo'ydi. Keyin qumg'onni qo'lga olib, to'sni Hojimurodning oldiga surdi. Hojimurod kamzulinig yenglarini muskuldor bilaklarigacha surdi-da, qo'llarini Sado quyayotgan qumg'ondan oqib turgan muzday shaffof suvga tutdi. Qo'lini yuvib toza sochiqqa artgach, taomga yaqin siljidi. Eldor ham shunday qildi. Mehmonlar ovqat yeyish bilan mashg'ul ekanlar, Sado ularning qarshisida o'tirib olib, kelganlari uchun bir necha bor minnatdorchilik bildirdi. Poygag'dagi bola yaltiroq qora ko'zlarini Hojimuroddan olmas, xuddi o'z tabassumi bilan otasining so'zlarini ma'qullagan, day iljayar edi.

Hojimurod bir kecha-kunduzdan ortiq tuz totmaganiga qaramay, jindakkina non bilan pishloq yedi va xanjarining yonidan pichoqchasini chiqarib, boldan olib nonga surtdi.

– Bizning bolimiz yaxshi. Boshqa yillarga qaraganda bu yil bol ham mo‘l, ham yaxshi bo‘ldi, – dedi chol, aftidan, Hojimurod asaldan totingani uchun xursand bo‘lib.

– Rahmat, – dedi Hojimurod va taomdan chetga surildi. Eldor yana yemoqchi edi, ammo u ham o‘zining murshidi singari dasturxondan uzoqladi va Hojimurodga tosqumg‘on tutdi.

Sado Hojimurodni uyiga kiritib, o‘z hayotini xavf ostida qoldirganini tushunardi, negaki Shomilning Hojimurod bilan bo‘lgan janjalidan so‘ng, butun Chechen aholisiga Hojimurodni qabul qilmaslik, kimki qabul qilsa, qattiq jazolanishi bildirilgan edi. Hojimurod bu uyga kirganidan ovul kishilari har bir soniyada xabar topishi va uni tutib berishni talab qilishlari ham mumkinligini bilardi. Lekin bu holat Sadoni tashvishga solmas, balki quvontirar edi. Sado o‘z jonini fido qilib bo‘lsa-da, mehmonini himoya qilishni o‘z burchi deb hisoblar va bundan xursand bo‘libgina qolmay, faxrlanar edi ham.

U Hojimurodga qarab:

– Sen uyimda ekansan, boshim omon bo‘lsa, hech kim senga qo‘l ko‘tara olmaydi, – deb takrorlardi.

Hojimurod uning yaltiroq ko‘zlariga qaradi va gaplari rost ekanini anglab, uni chin dildan duo qildi:

– Ilohim umring uzoq, baxting barqaror bo‘lsin.

Sado bu yaxshi tilak uchun minnatdor bo‘lib qo‘llarini ko‘ksiga qo‘ydi.

Sado uyning darpardalarini yopib, o‘choq uchun shox tayyorlab qo‘yib, g‘oyat shod va ko‘tarinki kayfiyatda mehmonxonadan chiqdi-da, butun oilasi yashaydigan xonaga kirib ketdi. Ayollar hali uxlashmagan edi. Ular mehmonxonada tunamoqchi bo‘lgan xavfli qo‘noqlari haqida so‘zlashmoqda edilar.

II

Xuddi shu kechaning o'zida, Hojimurod yotgan ovuldan yigirma chaqirimcha uzoqlikda, oldingi Vozdvijenskiy qal'asidan, Chahgirin darvozasining orqasidagi istehkomdan un-
ter-ofitser¹ bilan birgalikda uch askar chiqdi. Ular, o'sha vaqtlarda Kavkaz askarlari kiyadigan kiyimlar: kalta po'stin va papax kiygan, shinellarini o'rab, yelkalariga osishgan va qo'ng'iz tizzadan yuqori katta etiklarda edilar. Askarlar miltiqlarini yelkalariga osib olgan holda avval yo'ldan bordilar, so'ng besh yuz qadamcha bosishgach, burildilar-da, etiklari bilan qurigan yaproqlarni shitirlatib o'ng tarafga qarab yigirma qadamcha yurdilar va singan, qora tanasi qorong'ida ham ko'rinib turgan chinor yonida to'xtadilar. Odatda, chinorning tagiga maxfiy qorovullar yuborilar edi.

Askarlar kelayotgan vaqtda, daraxtlarning tepasida xuddi chopqillab borayotganday bo'lib ko'ringan yorug' yulduzlar endi butoqlar orasida yaltirashib to'xtadilar.

– Balli, qoqlanibmiz, – dedi un-ter-ofitser – Panov, so'n-
uzun nayzali miltig'ini yelkasidan olib, taraqlatib daraxtga su-
yab qo'ydi. Uch askar ham shunday qildi.

– Rostdanam yo'qotib qo'ydimmi-a, Panov – jahl bilan
g'o'ng'illadi. – Yo unutib qoldirganman, yo yo'lda tushib
qolgan.

– Nimani axtaryapsan, axir? – askarlardan biri tetik, xur-
sand ovozda so'radi.

– Trubkani, bilmadim, sabil qayoqqa yo'qoldi ekan.

– Ha, nay butunmi? – tetik ovoz so'radi.

– Nay mana.

– To'g'ri yerni o'yib chekavermaysizmi?

– Be, bo'lmagan gap.

– E, birpasda to'g'rilaymiz.

Maxfiy postlarda chekish man qilingan, ammo bu yer, de-
yarli, maxfiy post emas, balki tog'liklar ilgari qilganlari sir-
gari bildirmasdan to'plarini keltirib istehkomga qarab o'q o-

¹ *Unter-ofitser* – kichik ofitser.

masin deb qorovullar yuboriladigan oldingi marra edi. Shuning uchun ham Panov o'zini chekishdan mahrum qilishni istamadi-da, xushchaqchaq askarning taklifiga qo'shildi. Xushchaqchaq askar cho'ntagidan pichoq olib yerni o'ya boshladi. U chuqurchani kovlab bo'lib, unga nayni joylashtirdi, so'ng chuqurchaga tamaki soldi, tamakini pastga bosib qo'ydi – trubka tayyor bo'ldi. Mukkasidan tushib yotgan, bet suyagi irg'ib chiqqan askarning basharasini bir lahza yoritib, oltingugurt yondi. Naydan vishillab ovoz chiqdi, Panov yongan tamakining yoqimli hidini sezdi.

– To'g'riladingmi? – dedi u oyoqqa turib.

– Bo'lmasa-chi.

– Qandingni ur, Avdeyev, ixtirochi. Qani?

Avdeyev Panovga joy berdi-da, og'zidan tutun chiqara turib, yonboshiga ag'darildi.

Panov muk tushdi va nayni yengi bilan artib cheka boshladi.

Chekib bo'lishgach, askarlar orasida suhbat boshlanib ketdi.

– Rota komandiri yana yashikka qo'l suqqan emish, deyish-yapti, aftidan, yutqazib qo'yganga o'xshaydi,– dedi askarlar-ning biri yoqimsiz ovoz bilan.

– Qaytarib beradi, – dedi Panov.

– Shubhasiz, u yaxshi zobit, – Avdeyev quvvatladi.

– Yaxshi, yaxshi, – gap boshlagan askar qovog'ini solib davom etdi, – mening fikrimcha, rota u bilan, modomiki, olib-son, qancha olding va qancha berasan, ayt, deb gaplashmog'i lozim.

– Rota nima desa, shu, – dedi Panov og'zidan trubkani olib.

– Turgan gap, ko'pchilik – qudratli narsa, – Avdeyev quvvatladi.

– Axir, arpa sotib olish kerak, yana bahorgacha etiklarni butun qilib olish lozim, pul kerak, axir, nega pulni oladi... – norozi askar so'zida turib oldi.

– Aytyapman-ku, rota xohlaganini qiladi, – Panov takrorla-di. – Bu birinchi marta bo'layotgan ish emas, axir, olibdimi, beradi.

U vaqtlarda Kavkazda har bir rota o'z xo'jaligining ustidan saylangan kishilari orqali idora qilinar edi. Rota xazinadan kishi boshiga 6 so'm 50 tiyindan pul olar va o'zini ta'minlardi karam ekar, pichan o'rar, o'zining ot-aravalari bo'lar, to'q rota otlari bilan maqtanar edi. Rotaning pullari esa yashikda saqlanar, yashikning kaliti rota komandirida bo'lar va rota komandirining yashikdan qarzga pul olish hodisasi ko'p bo'lib turar edi. Bu safar ham shunday bo'lgan, askarlar ham shu haqida so'zlashmoqda edilar. Qovog'i soliq askar Nikitin rota komandiridan hisob talab qilishni istar, Panov bilan Avdeyev esa bunday qilmaslik kerak, der edilar.

Panovdan keyin Nikitin ham chekdi, so'ng ostiga shinelini to'shab, daraxtga suyanib o'tirdi. Askarlar jim bo'ldilar. Faqat shamolning balandda, daraxtlar tepasida shitirlagan ovozigina eshitilardi. Birdan bu shitirlashlar orasidan chiyabo'rilarning chiyillashi, yig'lashi, akillashlari eshitildi.

– La'natilarning avjini qara-ya, – dedi Avdeyev.

– Ular yuzingning qiyshiqqligini mazax qilishyapti, – dedi to'rtinchi askar ingichka ovozda.

Yana hammasi jim bo'ldi, faqat shamolgina daraxtlarning shoxlarini qimirlatib, yulduzlarni goh ko'rsatib, goh berkitar edi.

– Antonich, – xushchaqchaq Avdeyev birdan Panovdan so'radi, – seni ham zerikadigan payting bo'ladimi?

– Qanaqangi zerikish?

– Men ba'zan shu qadar zerikaman, shu qadar diqqinafas bo'lamanki, nima qilishimni o'zim ham bilmay qolaman.

– Shunaqami? – dedi Panov.

– Men hov bir vaqt pullarimni ichib qo'ygan edim-ku, bu larning barchasi diqqatbozlikdan edi. Boshimga tashvish kelaverdi, kelaverdi. Ke, mast bo'lib, bir xursand bo'lay, deb o'yladim.

– Ichkilikdan yana battarroq bo'ladi.

– Shunday ham bo'ldi, ilojing qancha?

– Ha, nimadan diqqat bo'lasan?

– Menmi? Uyimni sog'inib diqqat bo'laman-da.

– Nima, boymidilaring?

– Boy emasdikku-ya, ammo durustgina kun kechirardik-da.

So‘ng Avdeyev Panovning o‘ziga necha martalab aytib borgan narsalarini yana hikoya qilishga tushdi.

– Axir, men o‘z xohishim bilan akam uchun askarlikka keldim-da, – Avdeyev gapira ketdi. – Uning to‘rt bolasi bor, meni esa yangigina uylantirishgan edilar. Onam yolvorib qo‘ymadi. Menga nima, balki, yaxshiligimni unutmaydi, deb o‘yladim. Xo‘jayinning oldiga kirdim. Xo‘jayinimiz yaxshi odam: – barakalla, boraver, – dedi. Shunday qilib akam uchun askarlikka keldim.

Juda soz, yaxshi qilibsan, dedi Panov.

– Mana, endi, Antonich, ko‘rib turibsan, xafaman. Hammasidan ham ko‘proq shunga diqqatmanki, axir, nimaga akam uchun askarlikka keldim? U hozir mazza qilib yuribdi, men esa mana, azob chekyapman. Qancha ko‘p o‘ylasam, shuncha yomon bo‘ladi. Shunaqa bo‘lar ekan.

Avdeyev biroz jim qolgach:

– Ha, yana chekamizmi? – deb so‘radi.

– Ha, mayli, qani, to‘g‘rila!

Askarlar cheka olmadilar. Avdeyev endigina o‘rnidan turib, trubkani to‘g‘rilamoqchi bo‘lgan edi, shamolning shovuri eshikni yulash yo‘lda kelayotgan kishilarning qadam tovushlari eshittildi. Panov miltig‘ini qo‘lga olib, oyog‘i bilan Nikitinni turti. Nikitin o‘rnidan turib, shinelini yerdan oldi. Uchinchi askar – Bondarenko ham o‘rnidan turdi.

– Men-chi, birodarlar, ajoyib bir tush ko‘rdim...

Avdeyev Bondarenkoga qarab: «Jim», deb qo‘ydi, askarlar jim bo‘ldilar. Etik emas, boshqa narsa kiygan kishilarning muloyim oyoq tovushlari yaqinlasha boshladi. Qorong‘ilikda yuproq va qurigan shoxchalarning shitirlashi borgan sari aniq eshutilmoqda edi. Keyin chechenlarga xos tovushlar eshittildi. Endi askarlar faqat ovozlarnigina eshitib qolmay, daraxtlar orasidagi yorug‘likdan o‘tib borayotgan ikki sharpani ham ko‘rdilar. Sharpalarning biri pakanaroq, ikkinchisi novcharoq edi. Sharpalar askarlarga yaqinlanganda Panov qo‘liga miltig‘ini olib, o‘zining ikki hamrohini bilan yo‘lga tushdi va:

– Kimsan? – deb baqirdi.

– Tinch chechenlar, – pakanasi javob berdi. Bu Bota edi.

– Miltiq yo‘q, qilich yo‘q, – dedi u o‘zini ko‘rsatib. –
Knyaz kerak.

Novchasi miq etmay hamrohining yonida turardi. U ham
qurolsiz edi.

– Demak, josus, polk komandirining oldiga olib borish ke-
rak, – dedi Panov o‘z o‘rtoqlariga tushuntirib.

– Knyaz Voronsov kerak, juda zarur ish bor, – dedi Bota.

– Bo‘ldi, bo‘ldi, olib boramiz, – dedi Panov. – Qani bo‘l-
masa, Bondarenko bilan sen olib bora qol, – u Avdeyevga mu-
rojaat qildi, – navbatchiga topshirgach, yana qaytib kel. Menga
qara, – dedi Panov, – ehtiyot bo‘l, oldingga tushirib ol!

– Ha, bu nima? – dedi Avdeyev, go‘yo miltig‘ining nayzas
bilan birovni sanchayotganday harakat qilib, – bitta tiqaman,
ikkovining ham surobi to‘g‘ri bo‘ladi.

– O‘zi nima joni bor, bitta sanchsang masala hal, – dedi
Bondarenko.

– Qani, marsh!

Kutilmagan mehmonlar va ikki askarning oyoq tovushlar
tingach, Panov bilan Nikitin o‘z joylariga qaytdilar.

– Kechasi nima qilib yuribdi? – dedi Nikitin.

– Ishi bordir-da, – dedi Panov. – Picha sovuqroq bo‘lib
qoldimi, – deya qo‘shib qo‘ydi, so‘ng shinelini yozib kiydi-da
daraxt yoniga o‘tirdi.

Ikki soatlardan so‘ng Avdeyev bilan Bondarenko qaytib
keldilar.

– Xo‘sh, topshirdilaringmi? – deb so‘radi Panov.

– Topshirdik. Polk komandiridikagilar hali ham yotishma-
gan ekanlar. To‘ppa-to‘g‘ri uning oldiga olib bordik. E, do‘st-
larim, bu taqirboshlar juda yaxshi yigitlar ekan, – Avdeyev
davom etdi. – Xudo haqqi! Men ular bilan toza gaplashdim.

– Sen, surishtirmay-netmay gaplashaverasan, – dedi Nikitin.
Avdeyevdan norozi bo‘lib.

– Rost, xuddi Rossiya kishilariga o‘xshaydi. Bittasi uy-
langan ekan. Marja bor? – deyman, – bor, – deydi. Baranchu

bu? – deyman, – bor, ko‘p, – deydi. Ikkitami? – Ikkiti, – deydi. Shunday qilib toza gaplashdik. Yaxshi yigitlar ekan.

– Bo‘lmasa-chi, ular yaxshi yigitlar, – dedi Nikitin, – faqat yakkama-yakka duch kelib qol-chi, ichak-chovog‘ingni ag‘darib tashlaydi, xolos.

– Tezda tong yorishsa kerak, – dedi Panov.

– Ha, yulduzlar ham so‘na boshladilar, – dedi Avdeyev o‘tirayotib. Askarlar yana jim bo‘ldilar.

III

Kazarma va askarlar uyining derazalarida ko‘pdan chiroq shu‘lasi ko‘rinmas, ammo qal‘adagi eng yaxshi uylardan birining derazalaridan hamon yorug‘ tushib turardi. Bu uyda Kurinskiy polkining komandiri, bosh qo‘mondonning o‘g‘li, fligel-mulozim¹ knyaz Semyon Mixaylovich Voronsov turar edi. Voronsov xotini, Peterburgning mashhur go‘zali Mariya Vasilyevna bilan bu kichkina Kavkaz qal‘asida hech kim, hech qachon yashamagan dabdaba bilan yashar edi. Bu esa Voronsov va, ayniqsa, uning xotini uchun faqirona hayotday tuyular, bu yerdagi aholiga esa bularning turmushi favqulodda hashamatli ko‘rinardi.

Hozir, kechasi soat o‘n ikkida, gilam to‘shalgan, og‘ir darpardalari tushirilgan katta mehmonxonada to‘rtta sham bilan yoritilgan karta stolining atrofida uy egalari mehmonlar bilan birga o‘tirishib karta o‘ynashmoqda edi. O‘ynovchilarning biri – uy egasining o‘zi: cho‘zinchoq yuzli, malla sochli, fligel-mulozimlarga xos nishonlar – venzel² va akselbant³lari bilan o‘tirgan polkovnik Voronsov edi; unga sherik bo‘lib o‘ynayotgan kishi Peterburg universitetining kandidat⁴i, ya‘ni knyaginya Voronsovaning ergashtirib kelgan yosh o‘g‘lini

¹ *Fligel-mulozim* – podsho saroyiga mansub bo‘lgan zobit.

² *Venzel* – pogonga nafis qilib tikilgan bosh harflar.

³ *Akselbant* – formadagi belgi, yelkadan o‘tkazilgan to‘qima bog‘.

⁴ *Kandidat* – universitetni birinchi daraja bilan bitirgan kishi.

o'qitish uchun yaqindagina chaqirtirib olingan paxmoq sochli, tumshaygan yosh yigit edi. Ularga qarshi ikki zobit o'ynar edi: biri – dumaloq qizil yuzli, gvardiyadan bu yoqqa o'tgan rota komandiri Poltoratskiy, ikkinchisi – chiroyli yuzida sovud bir ifoda bo'lgani holda gerdayib o'tirgan polk mulozimi edi. Shahlo ko'z, qora qosh go'zal knyaginya Mariya Vasilyevna esa Poltoratskiyning yonida, uning oyoqlariga etigini tegizib kartalariga qarab o'tirar edi. Knyaginyaning so'zlarida har ko'z qarashlarida ham, tabassumlarida ham, tanasining butun harakatlarida ham, undan anqib turgan atir hidlarida ham Poltoratskiyni unga yaqin o'tirishidan boshqa hamma narsani unutishga olib borgan bir joziba bor edi, shuning uchun har Poltoratskiy borgan sari o'z sherigining jahlini chiqarib, xat ustiga xato qilar edi.

– Esi joyidami o'zi! Yana tuzni kuydirdi, – dedi mulozim qip-qizarib, Poltoratskiy tuzni boy berganida.

Poltoratskiy, xuddi uyqudan uyg'ongandek, dovdirab muruvvatli, katta-katta qora ko'zlari bilan mulozimga norozi qaradi.

– Ha, uni kechiring, – dedi Mariya Vasilyevna tabassum bilan. – Ana, sizga aytmabmidim, – u Poltoratskiyga murdoj jaat qildi.

– Axir, siz butunlay boshqa narsani aytgan edingiz, – dedi Poltoratskiy iljayib.

– Ajab, boshqa narsa edimi? – dedi u va yana jilmaydi. Bu jilmayish Poltoratskiyni shu qadar zo'r hayajonga soldi va quntontirdiki, u qip-qizarib ketdi va kartalarni olib chiylay boshladi.

– Sen chiylama, – dedi mulozim jiddiy va shu zahoti uzul taqilgan oppoq qo'li bilan xuddi kartadan tezroq qutulmoqchi bo'lganday, uni tez-tez suza boshladi.

Mehmonxonaga mulozim kirib, navbatchi knyazni so'rayotganini bildirdi.

– Kechirasiz, janoblar, – dedi knyaz ruschani inglizcha talaffuz bilan so'zlab. – Mariya, sen mening o'rnimga o'tirasan.

Knyaginya sarv qomatini rostlab, o'rnidan ildam turdi hamda ipak kiyimlarini shildiratib baxtiyor ayollarga xos ochiq tabassum bilan iljayib so'radi:

– Rozimisizlar?

– Men doim hamma narsaga roziman, – dedi mulozim, edi o'ynashni mutlaqo bilmaydigan knyaginyaning o'ziga raqib bo'lganidan xursand bo'lib. Poltoratskiy esa faqat iljayib, qo'llarini yozdi.

Knyaz mehmonxonaga qaytib kelganda robber¹ tugagan edi. U g'oyat hayajonga tushgan va xursand bir holda kirib keldi.

– Bilasizlarmi, men sizlarga nimani taklif qilaman?

– Xo'sh?

– Shampanskiy ichamiz.

– Men bunga doim tayyorman, – dedi Poltoratskiy.

– Xo'sh, bu juda yaxshi gap, – dedi mulozim.

– Vasiliy! Qani, keltiringlar, – dedi knyaz.

– Nimaga chaqiribdilar? – Mariya Vasilyevna so'radi.

– Navbatchi va yana bir kishi kelgan ekan.

– Kim? Nima gap? – Mariya Vasilyevna yana shoshib so'radi.

– Aytolmayman, – dedi Voronsov yelkasini qisib.

– Aytolmaysanmi? – Mariya Vasilyevna takrorladi. – Ko'ramiz.

Shampanskiy keltirdilar. Mehmonlar bir stakandan ichishdi, so'ng o'yinni tugatishib, hisob-kitob qilib, xayrlasha boshladilar.

– Sizning rotangiz ertaga o'rmonga borishga tayinlanganmi? – knyaz Poltoratskiydan so'radi.

– Ha. Nima edi?

– Bo'lmasa ertaga siz bilan ko'rishamiz, – dedi knyaz biroz qitilmayib.

Es-hushi faqat Mariya Vasilyevnaning do'mboq oq qo'li qisishda bo'lgan Poltoratskiy Voronsovning gapini yaxshi anglab yetmasdan:

¹ Robber – ma'lum hisobga qadar o'ynaladigan o'yin.

² Askarlarning o'rmondagi ishi daraxt qirqishdan iborat edi, bu bilan ular boshluqning bildirmay kelib hujum qilishini va qochish joyini yo'qqa chiqarar edi.

– Juda xursand bo‘laman, – dedi.

Mariya Vasilyevna har galgiday Poltoratskiyning qo‘li ni faqat mahkam qisibgina qolmay, qattiq silkib ham qo‘ydi. Keyin Poltoratskiyga g‘ishtinni yurgan vaqtida qilib qo‘ygan xatosini yana bir karra eslatib, chiroyli, erkalovchi ma‘nodor tabassum bilan jilmayib qo‘ydi.

Poltoratskiy faqat unga o‘xshash kiborlar jamiyatida o‘sgan va tarbiyalangan kishilar kabi, bir oy harbiy hayotni boshidan kechirgandan keyin, o‘zining ilgarigi doirasiga mansub bo‘lgan ayolni, yana knyaginiya Voronsova singari sohibjamo‘lni uchratgani uchun boshi osmonga yetib, uyga yaxshi kayfiyatda qaytdi.

U o‘rtog‘i bilan turadigan kichkina uyga kelib, tashqari eshikni itardi, eshik berk edi. U taqillatib ko‘rdi, ochilmadi. So‘ng jahl bilan oyog‘i va qilichini ishga solib taraqlata boshladi. Eshik orqasidan oyoq tovushi eshitildi, Poltoratskiyning malayi Vavilo eshik ilmagini tushirdi.

– Eshik zanjirlashni qayerdan chiqarding? Ahmoq!

– Ha, axir, berkitmasa bo‘ladimi, Aleksey Vladimir...

– Yana mast. Men senga berkitishni ko‘rsatib qo‘yay...

Poltoratskiy Vaviloni urmoqchi bo‘ldi-yu, yana bu fikridan qaytdi.

– He, turqing qursin. Shamni yoq!

– Hozir.

Vavilo haqiqatan ham ichgan edi, chunki u kaptenarmus¹ning kidada tug‘ilgan kun sharafiga qilingan ziyofatda bo‘lgan edi. Uyga qaytib kelgach, o‘z hayotini kaptenarmus Ivan Makeichning hayoti bilan taqqoslab, o‘ylay ketdi. Ivan Makeichning daromadlari bor, uylangan va bir yildan so‘ng bo‘shayman degan umidi ham bor edi. Vavilo esa bolaligidayoq yuqoriga ya‘ni xo‘jayinlarning xizmatiga olingan, hozir qirqlardan oshib qolgan bo‘lsa-da, haliga qadar uylanmagan va o‘zining betayini

¹ *Kaptenarmus* — askarlarga doir qurol va asboblarni saqlanadigan omborning mudiri. Chor armiyasida bu mansab, odatda, darajali (zabit bo‘lmagan) harbiylarga topshirilardi.

Xo'jayini bilan darbadar hayot kechirar edi. Xo'jayin yaxshi edi, kam urishardi, ammo bu qanaqa turmush, axir! «Kavkazdan qaytib kelgach, seni ozod qilaman, deb va'da bergan edi, ha, ozod bo'lib qayoqqa boraman, axir...» Itday yashasang, o'yladi Vavilo. So'ng shu qadar uyquasi keldiki, bitta-yarimta odam kirib, biror narsani olib ketmasin, deb qo'rqib eshikning iljagini soldi va uxlab qoldi.

Poltoratskiy o'rtog'i Tixonov bilan birga yotadigan xonaga kirdi.

– Xo'sh, nima, yutqizib qo'ydingizmi? – dedi Tixonov uyg'otib.

– Yo'g'-e, o'n yetti so'm yutdim va bir butilka shampanskiy ichdik.

– Mariya Vasilyevnani ham ko'rdingizmi?

– Mariya Vasilyevnani ham ko'rdim, – dedi Poltoratskiy.

– Turadigan vaqt ham bo'lay deb qoldi, – dedi Tixonov, – soat oltida yo'lga tushmoq lozim.

– Vavilo, – deb chaqirdi Poltoratskiy, – menga qara, ertaga meni soat beshda uyg'ot.

– Sizni uyg'otib bo'ladimi, urishib berasiz.

– Men senga uyg'otib qo'y deyapman! Eshitdingmi?

– Xo'p.

Vavilo etik va kiyim-boshlarini olib ketdi. Poltoratskiy esa o'rniga yotdi va iljayganicha papiros chekdi-da, shamni o'chirdi. U qorong'ida qarshisida Mariya Vasilyevnaning tabassum-la kulib turgan chehrasini ko'rdi.

Voronsovlar darrov uxlashmadi. Mehmonlar ketishgach, Mariya Vasilyevna erining yoniga keldi va uning qarshisida to'stab, jiddiylik bilan so'radi.

– Eh bien, vous ai er me dir che gue c'est?

– Mais, ma chere...

– Pas de «ma chere»! C'est un emissaire n'est-ce past?

– Quand meme je ne pous pas vous le dire.

– Vous ne pouvez pas? Alors c'est moi qui vais vois le dire!

– Vous?¹

Bir necha kundan beri Hojimurod bilan bitim tuzish yuzasi dan bo'layotgan gaplarni eshitgan va erining oldiga Hojimurodning o'zi kelgan, deya gumon qilgan knyaginiya:

– Hojimurod emasmi? – deb so'radi.

Voronsov inkor qila olmadi, ammo kelgan kishi Hojimurodning o'zi emas, balki Hojimurodning ertaga daraxt kesilmoqchi bo'lgan yerga kelishini xabar qilgani kelgan vakil ekanini aytib, xotining hafsalasini pir qildi. Qal'ada ko'ngilga tegadigan bir tarzda zerikarli turmush kechirayotgan yosh Voronsovlar – xotini ham, eri ham bu voqeadan xursand bo'ldilar. Bu xabar Voronsovning otasiga qanday yoqib tushishi haqida so'zlashgan er-xotin soat uchda uxlashga yotishdi.

IV

Hojimurod Shomilning unga qarshi yuborgan muridlaridan qochib yurib uyqusiz o'tkazgan uch kechadan so'ng, Sado unga xayrli tun tilab uydan chiqib ketishi bilanoq uxlab qoldi. U yechinmasdan, boshini qo'liga qo'yib, mezbon tomonida qo'yilgan qizil momiq yostiqa tirsaklarini botirib uxlatdi. Unga yaqin joyda devor tagida Eldor uxlamogda edi. Eldor o'zining kuchli gavdasini har tomonga tashlab, chalqanchasiga yotar, uning qora gozirli oq kamzuli ichidagi baland ko'kragi yostiqdan pastga tushib ketgan, yaqindagina qirilgan boshidan baland edi. Uning naq bolalarniki singari bilinar-bilinmas mo'ylov chiqqan qalin yuqori labi dam qisilib, dam ochilib, xuddi bir narsani kavshab yotganga o'xshardi. U ham xuddi Hojimurod singari kiyimlarini yechmasdan belbog'iga qistirib olgan to'pponchasi va xanjari bilan uxlab yotardi. Shox yonib bitmoqda va o'choq ichidagi chilchiroq miltiramoqda edi.

¹ – Xo'sh, endi aytib berasanmi, nima gap?

– Lekin, oppog'im...

– Hech qanaqa oppog'im ketmaydi. Kelgan chopar edi, shunday emasmi?

– Shunday bo'lgan taqdirda ham har holda senga ayta olmayman.

– Ayta olmaysanmi, bo'lmasa senga aytib beraman.

– Sen aytib berasanmi? (*Frans.*)